

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

VETERINARIYA PROFILAKTIKASI VA DAVOLASH FAKULTETI

FARMAKOLOGIYA VA TOKSIKOLOGIYA KAFEDRASI

VETERINARIYA FARMAKOLOGIYASI FANIDAN

**To‘qima preparatlari va ularga retseptlar yozish
mavzusida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘uloti uchun**

USLUBIY ISHLANMA

SAMARQAND-2024

Tuzuvchi:

M.A.Sharapov -Farmakologiya va toksikologiya kafedrası assistenti.

Taqrizchilar:

M.T.Isaev - Veterinariya ilmiy tadqiqot institute “Terapiya va toksikologiya” laboratoriyasi mudiri, v.f.n

T.T.Xatamov -Farmakologiya va toksikologiya kafedrası assistenti,
v.f.f.d., (PhD)

Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 24 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy mashg'ulot
<p>Darsning maqsadi: Bu amaliy mashg'ulotda talabalarga to'qima preparatlari bo'yicha tuzilgan ko'rgazmali jadvallar bilan ishlash va preparatlari bilan tanishtiriladi. Har xil sxemalarda retseptlar yozishni o'rganadi.</p>	
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <p>- Veterinariya amalyotida ishlatiladigan to'qima preparatlari va ularga retseptlar yozish usullari va tadbir rejalarini tuzish bo'yicha tavsiyalar berish;</p> <p>Biostimvet preparati, uni ishlatish shartlari va turli shakllarda retseptlar yozish.</p>	<p>O'quv faoliyati natijalari:</p> <p>Talabalar:</p> <p>- To'qima preparatlarini tayyorlash, ishlatish usullari to'g'risida ma'lumot oladilar;</p> <p>- To'qima preparatlarini ta'sir mexanizmi haqida tushunchaga ega bo'ladilar;</p> <p>-dori moddalariga retseptlar yozishni va qo'llash tartibini o'rganadi;</p>
Ta'lim usullari:	Amaliy mashg'ulot aqliy hujum, tezkor savol javob, baliq skeliti, klastir va SWOT-tahlil usullari bo'yicha
Ta'limni shakllantirish shakli:	Jamoaviy guruhli
Ta'lim vositalari:	Amaliy mashg'ulot mavzusi bo'yicha dars ishlanmasi, videoproyektor, tarqatma materiallar: jihozlar, ishlanmalar.
Ta'lim berish usullari	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki tezkor – so'rov, test va mustaqil tayyorgarligiga ko'ra.

Axborotli ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi 10 daqiqa	1.1. Mavzuning nomi maqsadi, vazifasi va kutilayotgan natijalar etkaziladi hamda mavzu rejasi elon qilinadi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar taqdim qilinadi. 1.3. Mavzu bo'yicha bajariladigan uslubiy va tashkiliy ishlar haqida tushuntiriladi.	Tinglaydilar, aqliy hujum usulida ishtirok etadilar, intirfaol muloqatda qatnashadilar.
2. Asosiy bosqich 55 daqiqa	2.1. Mavzu bo'yicha reja asosida va slaytlar yordamida ma'ruza o'qiydi. 2.2. Turli xil to'qima preparatlarining roli, tushunchalar shakillanishi va moxiyati rejaga muvofiq tashkil etiladi.	Javob beradilar. Tinglaydilar. Intirfaol muloqatda qatnashadilar.
3. Yakuniy bosqich 15 daqiqa	3.1. Mavzuga yakunlanadi, qilingan ishlarni talabalar kasbiy faoliyatidagi ahamiyatiga etibor qaratiladi. 3.2. O'tkazilgan savol-javoblar baholanadi. 3.3. Assistemint topshiriqlari beriladi va uni baholash mezonlari elon qilinadi.	Yozib oladilar. Savol-javoblarda ishtirok etadi. Topshiriqni bajaradi. O'z-ozlarini baholaydi.

1.1 Darsning maqsadi: Talabalarga hayvonlar kasalliklarni davolashda stimulyasiyalovchi terapiya: V.N.Filatov va N.I.Krauze bo'yicha to'qimali terapiya, autogemoterapiya, laktoterapiya, seroterapiya, A.A.Bogomols buyicha antiretikulyar sitotoksik zardobini (ATSZ) qo'llanilishi va turli preparatlariga retseptlar yozish.

1.2. Jihozlar, asbob-uskunalar, hayvonlar. Tayyorlangan to'qimali preparatlar (aloe ekstrakti, FIBS va boshqalar) yog'sizlantirilgan toza sut, antiretikulyar sitotoksik zardob (flakonda), 0,9% li fiziologik eritma, 4% li natriy limonli eritma, 1% li novokain, yod eritmalari, 2% li xlorotsid eritmasi, asboblar, shprintslar, prezintasiya ko'rgazma materiallari.

1.3. Darsning o'tilish uslubi. Dars laboratoriya va kafedra klinikasi sharoitida tashkil qilinadi. O'qituvchi dars boshida stimulyasiyalovchi davolash usullarining mohitini tushuntirib, talabalarga vazifa beradi va dars davomida uni bajarilishini nazorat qilib turadi.

2.1. Hayvon va o'simlik to'qimalaridan tayyorlangan preparatlar organizmni bioqo'zg'atish xususiyatiga ega. Birinchi marotaba **1930** yili M.P.Tushnov, organoleptik preparatlar-lizatlarini ishlab chiqib taklif qildi.

Lizatlar tarkibida yuqori molekulyar oqsillar, peptonlar, polipeptidlar, aminokislotalar, gistamin, xolin, fosfatidlar va boshqa gormonlar mavjud.

N.I.Krauze jarohatni davolashda unga teri va boshqa to'qimalarni 2% li xloratsidda konservatsiya qilgandan keyin ko'chirish (implantatsiya) usuli bilan davolashni taklif qildi.

To'qimali terapiyada, nerv sistemasining trofik funksiyasi, o'sish va semirish, buyrak usti bezi, oshqozon osti bezi faoliyatlari yaxshilanadi. Adrenokortikotrop, kortikosteroid gormonlari ko'payadi, oshqozon-ichakning sekretor va motor, retikuloendotelial (RES) funksiyalari oshadi, regenerativ jarayonlar, nafas olish, yurak faoliyati, qonning ko'rsatkichi, jarohat suyuqligining muhiti (pH) normallasadi, og'riqli belgilar pasayadi, agglutinin titri, komplement bog'lovchi moddalar qon zardobida oshadi. Fermentlar faoliyati tiklanadi, umumiy holat va ishtaha oshadi.

Davolash maqsadida konservatsiya qilingan hayvon to'qimalaridan: taloq, jigar, buyrak bezi, qon, charvi, qorin devori, ko'z qorachig'i, shishasimon tana, ko'z gavhari va urug'don olinadi.

M.P.Tushnov ***bo'yicha To'qimali preparatlarni tayyorlash texnikasi:*** Parenximatoz organlar (jigar, taloq, buyrak, urug'don va boshqalar) hamda har xil hayvonlar embrional to'qimalari toza holatda olinib, sterillangan shisha idishlarga solinadi, 2-4°C haroratda muzlatgichda 5 kun davomida 2% natriy xlorit eritmasida konservatsiya qilinadi. Konservatsiya qilingan to'qimalar qaynatilgan suv bilan yuvilib, tarozida tortiladi, maydalanadi (go'sht maydalagichda) va gomogenizatorga joylashtiriladi asta-sekin fiziologik eritma (1 g to'qimaga 2-3 ml) qo'shib boriladi. Tayyorlangan to'qima suyuqligi 2 soat uy haroratida, keyin yarim soat davomida 60-80°C da suv hammomida saqlanadi. So'ngra 2-3 qavatli marlidan o'tkazilib, ampula yoki shisha flakonlarga solinib og'zi yopiladi va 1 soat 120°C da avtoklavda zararsizlantiriladi. Tayyorlangan tuqima suyuqligini tozaligi va aktivligini tekshirish uchun qoramollarga 0,05-0,07 ml/kg og'irligiga (20-25 ml bir in'eksiya uchun) qo'y, cho'chqa va itlarga 0,1-0,2 ml/kg og'irligiga, parrandalarga 0,5-1 ml bir marta teri ostiga yuboriladi.


Filatov V.P. usuli bo'yicha hayvon to'qimalaridan ekstrakt tayyorlash.

2-4°C haroratda 2% natriy xlorit eritmasida konservatsiya qilingan to'qimalar gomogenizatorda maydalanib, asta-sekin 1:10 nisbatda fiziologik eritma qo'shib boriladi. Tayyorlangan to'qima suyuqligi 2 soat uy haroratida, yarim soat 60-80°Cda suv hammomida saqlanganidan so'ng 2-3 minut qaynatiladi, oldin yog'sizlantirilgan paxtadan so'ngra filtrlovchi qog'ozdan o'tkaziladi. Suyuqlik ampulalarga qo'yilganidan so'ng, 1 soat 120°C da avtoklavda zararsizlantiriladi va xavfsizlik uchun sinovdan

o'tkaziladi. Tayyor ekstrakt eriydigan suspinziya, emulgator sifatida ekstrakt ichiga 0,1% eritilgan agar-agar qo'shiladi.

Filatov V.P. bo'yicha o'simlik barglaridan ekstrakt tayyorlash. O'simlik barglari 6-8°C da 12-14 kun davomida qorong'i xonalarda konservatsiya qilingandan so'ng, suv bilan yuviladi, keyin gomogenizatorida maydalanadi va 1:4 nisbatda fiziologik eritma qo'shiladi. Tayyorlangan eritma 2 soat davomida uy haroratida tinitiladi, so'ngra 60-80°C da 1 soat suv hammomida bug'lanadi. Eritma 2-3 minut qaynatilib, filtrlovchi qog'ozdan o'tkaziladi. Tayyor suyuqlik ampulalarga qo'yilgandan so'ng 1 soat 120°C da avtoklavda saqlanadi. Ekstrakt teri ostiga yuqorida qayd qilingan dozada yuboriladi. In'eksiyani 3-5 kundan so'ng takrorlash mumkin. Ekstraktni jarohatlarni davolashda tampon yordamida namlab qo'llash ham mumkin.

Krauze N.I. bo'yicha to'qimali preparatlarni tayyorlash. Yangi tayyorlangan 2% li xloratsid eritmasi solingan bo'yni keng shisha idishlarga to'qima bo'lakchalari solinadi. Eritmani dastlabki 2 kun davomida har kuni va oxirgi 2 kun har kuni bir marta almashtirib turiladi. 5-6 kundan keyin to'qima implantatsiya qilishga tayyor bo'ladi. Implantatsiya (to'qimani ko'chirib o'tkazish) qilishdan 5-10 minut oldin to'qima fiziologik eritmaga solinadi va 4 qavatli dokaga o'ralib, ortiqcha suyuqligi siqib tashlanadi.



2.2. Implantatsiya texnikasi.

Hayvon bo'ynining yonbosh yoki boshqa qismidan 8x8 sm qilib operatsiya maydonchasi tayyorlanadi va teri ostiga og'riksizlantirish uchun 1% li novokain eritmasi yuboriladi. Skalpel bilan 2-3 sm uzunlikda teri kesilib Koxer pinseti yordamida teri ostida 5-6 sm chuqurlikda cho'ntakcha hosil qilinadi. Qon oqish to'xtatilib, 1-2 bo'lak to'qima cho'ntakchaga solinadi, so'ngra teri tikiladi yoki kleyli bog'lam qo'yiladi.

1. Rp.: Novocaini 1 % - 30.0
D.S. Mahalliy og'riqsizlantirish uchun
#
2. Rp.: Sol. natrii chloridi 0.9 % - 100.0
D.S. Maydalangan to'qimalarga aralashtirish uchun
#
3. Rp.: Sol. natrii chloridi 2 % - 100.0
D.S. To'qimalarni konservatsiya qilish uchun

Preparatlarni qo'llash bo'yicha yo'riqnomalari.

Filatov bo'yicha 100 ml to'qima preparati

Ta'rif: Qalin, bir hil kulrang-jigarrang suyuqlik, g'ovakli cho'kindi bo'lib, u silkitganda bir tekis suspenziyaga aylanadi.

Tarkibi: Sog'lom qishloq xo'jalik hayvonlarining parenximal organlarining (jigar, taloq) to'qimalaridan suvli substrat (33%).

Farmakologik xususiyatlari:

Biologik stimulyatorlarni, aminokislotalarni, oddiy peptidlarni va boshqa faol moddalarni o'z ichiga olgan biologik preparat. Parenteral qo'llanganda streslarni oldini oladi, tananing biotonusini oshiradi, metabolizmni va oqsil biosintezini faollashtiradi.

Qo'llanilishi:

Yirik qoramol, cho'chqa, qo'ylarni go'shtga boqish paytida. Akusherlik va ginekologik kasallik (metrit, endometrit, tuxumdonlarning yallig'lanish kasalliklari, yo'ldoshning kechikishi, mastit)larda. Oshqozon osti bezi atoniyasi, o'tkir va surunkali enterit. Uzoq vaqt davomida davolanmaydigan (*Oqma – fistula*), otlarda yuz nervining falajlanishi, o'tkir va yarim o'tkir yallig'lanishlar va yaralarni davolash uchun, sigirlar elinda teri o'sishi, tananing himoyasini oshiradi.

Dozasi: teri ostiga

sigirlarga - 10-15 ml. Buqalar - 5 ml (boqishdan 2 hafta oldin).

buzoqlar (6-12 oylik) - 5-10 ml. cho'chqa (3-4 oylik) - 2-4 ml.

qo'ylar (5 oylikdan boshlab) - 2-4 ml.

Preparat 5-7 kunlik interval bilan 2-3 marta buyuriladi.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar: Aniqlanmagan.

Chiqarish shakli: 100 ml.

Saqlash: Quruq, qorong'i joyda. Saqlash harorati + 2 ° C dan +11 ° C gacha.

Yaroqlilik muddati: 2 yil.

Rp.: Sol. BioStimVet – 10,0 ml

D.t.d.№3

D.S. 7 kunlik interval bilan M/orasiga bir martadan ineksiya qilish uchun.

GSP- To'q jigarrang suyuqlik. Filatov usuli bo'yicha tayyorlangan jigar, oshqozon osti bezi va tabiiy me'da shirasi (otlar)dan olinadi. Olingan ekstrakt suziladi, eritilgan agar-agar qo'shiladi, sterilizatsiya qilinadi va flakonlarga qadoqlanadi.

Filatovning fikricha- u biogen stimulyator sifatida ishlatiladi. O'sish va rivojlanishdan orqada qolgan sutdan ajratilgan cho'chqalar va qo'zilar, distrofiya, raxit va bronxopnevmoniya alomatlari bo'lgan hayvonlarga 1 kg tana vazniga 0,2 ml dan 2-3 marta, 10 kunlik yoki oyilik oraliq bilan 1 marta ineksiya qilinadi.

Gemolizat - Haemolisatum. To'q jigarrang suyuqlik. Tarkibida peptidlar, aminokislotalar, gormonlar, vitaminlar, qon va me'da shirasining boshqa biologik faol moddalari mavjud.

Tasiri: Markaziy asab tizimini rag'batlantiradi, qon aylanishini va metabolizmini yaxshilaydi, tanadagi intoksikatsiyani susaytiradi, ovqat hazm qilish va nafas olish organlarining buzilgan funksiyalarini tiklaydi. Organezimda suv metabolizmi va elektrolitik jarayonlar buzilgan taqdirda metabolizmni normallashtiradi, organizmning reaktivligi va hayotiy faolligini oshiradi.

Qo'llanilishi: ozuqadan zaharlanganda, shu jumladan, ovqat hazm qilish va nafas olish organlari kasalliklarini davolash va oldini olish uchun, tananing barqarorligini oshirish maqsadida, tug'ma nimjon yosh hayvonlarda. shu jumladan distrofiya, to'yib ovqatlanmaslik, buzilgan suv metabolizmida ishlatiladi. Yuqumli kasalliklarda u kimyoterapevtik vositalar bilan birgalikda buyuriladi.

Teri ostiga dozalari: buzoqlarga-20-30 ml, cho'chqalar-sutdan ajralganda -10-20ml. **Og'iz orqali dozasi** 2-3 baravar ko'p beriladi.

Rp.: Sol. Haemolisati – 20,0 ml

D.S. Teri ostiga bir marotaba ineksiya qilish uchun.

#

Rp.: Sol. Haemolisati – 60,0 ml

D.S. Og'iz orqali bir marta berish uchun.

Eleutherococcus ekstrakti - Exutum Eleutherococci suyuqligi. 33% spirt tarkibidagi quyuq jigarrang suyuqlik. Malinaning ildizlari va mevalaridan tayyorlangan.

Bu organizmga umumiy stemullovchi ta'sir ko'rsatadi, ishtahani ochadi, parrandalarning tuxumdorligi va semirishini oshiradi, hayvonlarning stressga chidamliligini oshiradi.

Qo'llanilishi: O'stirish, semirtirish va tuxumdorligini oshirish uchun 15-20 kun davomida ozuqa bilan beriladi. Stress reaksiyalarda- transport, fermanni qayta tashkil qilish, hayvonlarni saqlash va taroziga tortishda ishlatiladi.

Dozalari: (kuniga 1 boshga ml): 1 yoshgacha bo'lgan tovuqlar - 0,2ml; 15 kunlik - 0,02, 16-30 kun - 0,15; g'ozlar - 2, kurka – 3 ml dan ozuqa bilan beriladi. Ozuqa bilan yaxshilab aralashtirish uchun u suv (sut) bilan 1:5 nisbatda oldindan aralashtirib olinadi.

Rp.: Sol. Exutum Eleutherococci – 2,0 ml

D.t.d.№30

D.S. Ozuqa bilan kuniga bir marta 30 kun davomida berish uchun.

ACD-(antiseptik — stimulyator Dorogov) preparatlari – (ACD-1, ASD-2 va ACD-3) fraksiyalari shaklida tayyorlandi. A.V.Dorogov 1947-yilda ushbu preparatni ishlab chiqarib boshladi.

Rp.: Sol. ACD–2- 2,0 ml

D.t.d.№30

D.S. Suv bilan kuniga bir marta 30 kun davomida berish uchun.

#

Rp.: Sol. ACD–3- 100,0 ml

D.S. Jarohat yuzasiga surtish uchun.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yu.Salimov. Veterinariya farmakologiyasi –Toshkent 2019 yil.
2. S.S.Azizova. Farmakologiya –Toshkent 1994 yil.
3. M.N.Maxsudov. Farmakologiya –Tashkent 1997 yil.

